

Undalma murojaat shakllarining bir ko'rinishi sifatida

H. Ortiqova *BuxDU 2-kurs lingvistika (o'zbek)
mutaxassisligi magistranti*

Har bir til boshqa tillar orasida o'zining xususiyliklari bilan ajralib turadi. Milliy tilimiz bugungi kunga qadar o'zining boyligi, serqirraligi bilan o'z jozibasini namoyon etib kelmoqda. Jumladan, nutqimizda doimiy ravishda qo'llaniladigan turli xil murojaat shakllari tilimizning yana bir imkoniyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Jamiyat a'zolari ongida mavjud leksemalarning biror shaxs yoki predmetga nisbatan murojaat tarzda nutqda voqelanishi murojaat shakllari sanaladi. Murojaat shakllari fikr kimga qaratilayotganini ko'rsatib, gapda yuzaga chiqadigan mazmunni to'ldirib, boyitib keladi. Nutq jarayonida murojaat shakllari turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan aytish mumkinki, o'zbek tilida murojaat shakllarining qo'llanilish darajasi juda keng.

Ushbu maqolamizda murojaat shakllarining bir ko'rinishi bo'lmish – undalmalar haqida fikr yuritamiz. Gap, gap bo'laklari, gap bo'laklari mazmunini muayyanlashtirishga xizmat qiluvchi sintaktik birliklar masalasi, ayniqsa, ba'zan "gap bo'laklariga bog'lanmaydigan bo'lak", ba'zida «gapning uchinchi darajali bo'lagi» sifatida talqin etilayotgan sintaktik birliklardan biri – undalmalar tilshunosligimizda ko'pgina olimlar tomonidan o'rganildi. Chunonchi, A. Fitrat 1924- yilda nashr etilgan "Nahv"(Sintaksis) asarida gap turlarini ajrata turib, "undashli gap" atamasi ostida undalmali gaplarni ajratadi va undalmaga quyidagicha ta'rif beradi: "Gap kimgadir qaratib aytilgan bo'lsa, shuning oti gapning bosh tomonida yo orasida, yo oxirida aytilsa, ana shunday gapga undashli gap va shul otning o'zi "undash oti" bo'ladir: *Yigitlar qo'lingizdan kelgancha bilimingizni orttiringiz*"[1]. Fitrat misoldagi *yigitlar* so'zini "undosh oti" sifatida ajratadi. Fitratdan keyin Sh.Zunnun 1925-yilda nashr etilgan "Til qoidalari"

nomli kitobida undalma haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Gapning ichida tovushni ko'tarib bir kishiga yoki bir narsaga yondashib aytilgan so'zlar "undosh so'z" ataladir: *Mehnatkashlar, birlashingiz*" [2] (*mehnatkashlar* so'zi "undosh so'z"). "Undalmaning vazifasi aytilayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortishdir"[5], - degan fikrni A.G'ulomov o'zining 1955- yilda qayta nashr qilingan "Sodda gap" nomli kitobida aytgan edi. Bu fikr undalma faqat shaxsni bildirgan so'zlar bilan ifodalanganda to'g'ri bo'ladi. Lekin undalma hayvonlarni, jonsiz predmetlarni ifodalovchi so'zlar bilan ifodalangan bo'lsa yuqoridagi qoida biroz "torlik" qiladi. Keyinchalik "O'zbek tili grammatikasi" kitobining 1944- va 1976- yilgi nashrlarida undalmalarga: "So'zlovchining nutqi qaratilgan, shaxsni yoki predmetni bildirgan so'zlar undalma deyiladi"[4],- deb ta'rif berildi va bu ta'rif shu davrgacha undalmalar haqida aytilgan va bildirilgan barcha fikrlarning jamlanmasi edi. Bugungi kun tilshunosligida ham undalmalar fikr qaratilayotgan shaxs yoki predmetni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Ammo masalaning yana bir muhim tomoni bor. Nutqimizda shunday gaplar borki, ularning asosi undalmalarga borib taqaladi. Bilamizki, undalmalar so'z (She'rim,ya'na o'zing yaxshisan.(U.Nosir)), so'z birikmasi (Aziz farzandim,sendan umidlarim juda ko'p.) va gap (Salima ovozing boricha baqirdi: "Oyi"!) shaklida ham ifodalanishi mumkin. Undalmalar haqidagi nazariyalardan ma'lumki, gap boshida keluvchi undalmalar kuchli his-hayajon bilan ayliladi va ulardan keyin undov belgisi qo'yiladi. Bularning barchasi haqida A.Fitrat, Sh.Zunnun, A. G'ulomovlar o'z asarlarida (bundan tashqari, 'O'zbek tili grammatikasi',"Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarida ham) mulohazalar bor.

Kesimlik ko'rsatgichlari, nisbiy tugal fikrga ega bo'lishlik va ohang gap uchun muhim belgilar sanaladi. Agar so'z tarkibida kesimlik ko'rsatkichlari bo'lmasa, so'zning atov birligi yoki gap ekanligi, gap bo'lsa, qanday tabiatga ega ekanligini nutqda faqat ohang ko'rsata oladi [3]. Masalan, *Ukam*.(darak gap) *Ukam?*(so'roq

gap) *Ukam!*(undov gap) Har uchala gap ham faqat ohang bilan farqlanyapti. Undalmaning ba’zi ko’rinishlari ham shunday xususiyatlarni o’zida mujassam eta oladi. Asosan, gap boshida keluvchi va kuchli his-hayajon bilan aytiluvchi undalmalar. Masalan, *Yillar! Mening dardlarimga yolg’iz guvohsiz* gapida *Yillar!* birligi undalma emas, gap. Aniqroq qilib aytadigan bo’lsak, yillar birligi kuchli his-hayajon bilan tugal ohagda aytilyapti. Shuning uchun ham endi bu birlik gapning kengaytiruvchi bir qismi emas, mustaqil gapga – undov gapga aylandi. Quyidagi gaplarni ham yuqoridagi fikrimizga misol sifatida keltirishimiz mumkin: *Onajon! Qalbmida siz uchun tilaklar bisyor!* yoki *Ona yurtim! Dunyolarni alishmasman senga!* Gaplaridagi *Onajon!* va *Ona yurtim!* birliklarini ham gap deya olamiz, chunki har ikkala misolda ham birinchi fikr ohangi tugallanib, gapga xos bo’lgan tinish belgisi qo’yilgan, ikkinchi gapda yangi bir fikr boshqa ohang bilan aytilyapti. Lekin har ikkala qismning mazmunida bir-biriga bog’liqlik, uzviylik bor. Ikkinchi gap mantiqan birinchi gapning davomi.

Til doimo o’zgarishda va taraqqiyotda bo’ladi. Tilimiz rivojlanib borar ekan uning ochilmagan qirralari ochilib, yangiliklar ko’payib boraveradi. O’zbek xalqi nutqining boyligi, takrorlanmasligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Buning dalilini yuqoridagi misollarimizda ko’rib o’tdik. Kuzatishlarimiz shuni ko’rsatdiki, tilimizda gap shaklida keluvchi undalmalar emas, balki undalmaga, undalma vazifasida keladigan so’zlarga mazmunan yaqin qo’llaniluvchi gaplar bor, desak maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Adabiyotlar:

1. Фитрат. Танланган асарлар. IV том. – Т.: Маънавият, 2006.
2. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис.- Т.: Ўқитувчи, 1995.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2006.

4. Ўзбек тили грамматикаси. II том - Т.: Фан, 1976.
5. Ғуломов А. Содда гап. Тошкент, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси, 1955.